"O'zmilliybank" AJ
Buxoro viloyat Bosh Boshqarmasi
"Kogon" bank xizmatlar
markazi boshqaruvchisi v.b
_____A.H.Qosimov

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat
Milliy banki AJ Buxoro viloyat bosh boshqarmasi "Kogon" bank xizmatlar
markazi o'tkazilgan yig'ilish bayoni

Buxoro shahri 18.02.2026 yil

Raislik qildi: "O'zmilliybank" AJ Kogon shahar bank xizmatlar markazi boshqaruvchisi: - **A.H.Qosimov.**

Qatnashdilar: "O`zmilliybank" AJ Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish boo'limi bosh mutaxassis S.Ismatov, Markaziy Bank Buxoro viloyat Bosh boshqarmasi Bosh auditori A.Avliyoqulov hamda Kogon bank xizmatlar markazining barcha xodimlari. Jami to'rt 30 nafar xodim qatnashdi.

KUN TARTIBI:

1. **O'zmilliybank AJ da bank xodimlarining o'z lavozim yo'riqnomalariga mos ravishda faoliyat yuritish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish hamda xodimlar orasida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish to'g'risida.**
2. **Kiberxavfsizlik hamda axborot xavfsizligini taminlash, xodimlarning O'zmilliybank AJ Odob-Axloq qoidalariga qat'iy rioya qilinishi haqida davra suxbati.**

Yig'ilishni O'zmilliybank AJ Buxoro viloyat Bosh bosqharmasi AJ "Kogon" bank xizmatlar markazi boshqaruvchisi A.H.Qosimov yig'ilishni ochib hozirgi kunda korrupsiya jamiyatimizning global muammolaridan biri ekanligi va unung salbiy oqibatlari to'g'risida aytib, korrupsiya iqtisodiy xarajatlarni oshirib, iste'molchilar uchun xizmatlar va tovarlarning narxini qimmatlashtirishi, fuqarolar orasida tengsizlik kuchayishi, adolatga bo'lgan ishonch yo'qolishi, jamiyatda davlat idoralari va rasmiylarga bo'lgan ishonch susayishi, qonun ustuvorligining zaiflashib, korrupsiyaga berilgan davlat xizmatchilari va mutasaddi tashkilot hodimlarining adolatli qaror qabul qilish o'rniga shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yishi va korrupsiya nafaqat alohida bir sohaga, balki butun jamiyat va davlat rivojiga to'siq ekanligi to'g'risida takidlab, so'zni "O`zmilliybank" AJ Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi S.Ismatovga berdi.

Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi S.Ismatov so'zga chiqib, 2024-yil 5-iyun kunda qabul qilingan, 2025-yil 6-dekabrda kuchga kirgan **"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi" O'RQ 931-sonli** qonun to'g'risida tushuncha berib, undagi asosiy tushunchalar to'g'risida: Manfaatlar to'qnashuvi, Shaxsiy manfaatdorlik, Yaqin qarindoshchilik tushunchalari haqida aytib o'tildi, hamda ushbu qonunni tadbiq etish masalalari bo'yicha xozirgi kunda qilinayotgan ishlar yuzasidan tushntirishlar olib borildi. Shuningdek, xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilash, ularning ish rejimiga rioya etishligi, muomala madaniyati, tartib-intizom,

yuksak manaviy holatini ushlab turish, jinoiy moyil insonlarni aniqlash va oldini olish, Bank kasb – odob axloq kodeksiga to'liq rioya qilinishi, xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga yo'l qoymaslik bo'yicha so'z yurtib, "O'zmilliybank" AJ Bosh ofisining **2023 yil 1 martdagi №645-son** bilan ro'yxatga olingan Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatiga va xodimlarni ishga qabul qilishda maxsus ruxsatnomalar rasmiylashtirish talablariga rioya etishlari, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qoyilmasligi, yosh kadrlarni ustoz-shogir ananasida tarbiyalash, kasbiga fidoyi shaxs bo'lishlari, eng avvalo vatanparvar ruxda tarbiyalsh kerakligi aloxida ta'kidladi, hamda Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga chek qo'yish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish har bir xodimdan mas'uliyat talab qiladi, zero, sodir etilgan jinoyatlarga, albatta, javobgarlik muqarrarligi, bankda ayniqsa, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha mutasaddi xodimlar bilan profilaktik suhbatlar muntazam olib borilishini aytib o'tdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bo'yicha bo`yicha bosh mutaxassisi S.Ismatov so'zga chiqib, qonun ustuvorligini ta'minlanishini qat'iy nazoratga olinishi, xodimlar o'rtasida qonun, tartib-intizom, yuksak manaviy holatini ushlab turish, jinoiy moyil insonlarni aniqlash va oldini olish, Bank kasb – odob axloq kodeksiga to'liq rioya qilinishi, xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasiz munosabatni shakillantirish hamda hodimlarda halollik vaksinasini shakillantirish yuzasidan so'z yurtib, 2025-yil 26-dekabr kuni muhtaram Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqimizga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasi mamlakatimiz taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab, unda jamiyat va davlat rivojiga to'sqinlik qilayotgan muammolar ochiq va tanqidiy ruhda tahlil qilinishi, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq vazifalar belgilanganligi, murojaatnomada korrupsiya illatiga qarshi kurash masalalariga alohida e'tibor qaratilganligi, korrupsiya nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchiga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligi, shu bois ushbu illatga qarshi kurashni yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanganligi haqida so'z yuritdi.

"Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda 'favqulodda holat' e'lon qilamiz", deya ta'kidlanganligi, bu fikr davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, mas'ul shaxslarning javobgarligini kuchaytirish hamda korrupsion holatlarga mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan muhim siyosiy irodaning yaqqol ifodasi ekanligi haqida fikr yuritdi.

Murojaatnomada belgilangan vazifalar korrupsiyaga qarshi kurashishda barcha davlat organlari, jamoatchilik institutlari va fuqarolarning faol ishtirokini talab etilishi, qonun ustuvorligini mustahkamlash, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, ochiqlikni kengaytirish orqali ushbu illatga barham berish mumkinligi alohida qayd etildi.

Shu tariqa, Prezidentimiz Murojaatnomasida ilgari surilgan g'oya va tashabbuslar mamlakatimizda korrupsiyadan xoli muhitni shakllantirish, adolatli jamiyat barpo etish va barqaror taraqqiyotga erishishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilishi haqida aytib o'tildi.

Shuningdek "Markaziy bank Buxoro viloyat bosh boshqarmasi hamda Buxoro viloyati tijorat banklarida Korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga qarshi qurashish faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan **YO'L XARITASI**"da ko'rsatilgan talablar va bajarilgan ishlar to'g'risida so'z yuritdi. Bank sohasiga oid huquqbuzarliklarga chek qo'yish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish har bir xodimdan mas'uliyat talab qiladi, zero, sodir etilgan jinoyatlarga, albatta, javobgarlik muqarrarligi, bankda ayniqsa, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha korsatmalar berildi.

Shuningdek, Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo`limi bosh mutaxassisi N.Shironova so'z olib, bugungi kunda jamiyatimizda keng tarqalayotgan kiberxavfsizlik yuzasidan

barcha xodimlarni xabardor qilib har xil turdagi ijtimoiy tarmoqlarda tarqalyotgan hamda telegram messenger kanalaridan yuborilayotgan kibrxujumlardan ogox bo'lish yuzasidan takidlab o'tdilar. Shuningdek axborotni muhofaza qilish to`g`risidagi Nizomga muvofiq bank axborot xavfsizligini muhofaza qilish shu bilan birga bankka zarar etkazilishi holatlarining yuzaga kelishini oldini olish maqsadida Romitan BXMda tekshiruv o'tkazilganligi va ushbu tekshiruvda kamchiliklar aniqlanganligi to'g'risida gapirib xar bir mas`ul xodim o'z lavozim yo'riqnomasiga mos ravishda ishlashi, 2886-sonli ichki nazorat qoidalari asosida xar bir mijozni lozim darajada tekshirib identifikasiya qilishi kerakligi bank tizimi bo'yicha mavjud kompyuterlarda faqat o'z faoliyatiga doir ishlarni bajarishi to'g'risida ogoxlantirdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib

Yig'ilish qaror qabul qildi:

1. "O`zmilliybank" AJ Vobkent BXM boshlig'i O.Yavqocharov bergan ma'lumoti va "Markaziy bank Buxoro viloyat bosh boshqarmasi hamda Buxoro viloyati tijorat banklarida Korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga qarshi qurashish faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan YO'L XARITASI"dagi talablar ijro uchun qabul qilinsin.
2. O'zmilliybank AJ Vobkent BXMning barcha xodimlari tomonidan me'yoriy hujjatlarga mos ravishda, o'z lavozim yo'riqnomasiga asosan ishni to'g'ri va sifatli olib borilishi ta'minlansin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi: **S.X.Ismatov**

Kotib: **N.B.Raimova**

Yig'ilishda qatnashganlar:

Baxronov N.
Raqimov E.B
Jumayeva S
B. Sharipov
T. Qurbonov
M. Kenjaqulov
M.U. Nasimova
A. Ruzmatov
S. Xaqimova
S. Xamroev
S. Ortiqova

Ошова М

Баеева Т

Асадов Т

Мусадорова

Аетанова

Гамадонова

Ботирова Н

Эргашева Т

Резонова М

Михонова М

М. Зарипов

О. Аушов

С. Кудашов

Ш. Кураев

NBU